

“QUTADG‘U BILIG” FRAZELOGIK QATLAMINING TIPOLOGIYASI VA UMUMFILOLOGIK TAHLILI

Sidiqov Q. A.

Namangan Davlat Universiteti

“Qutadg‘u bilig” turkiy xalqlar ma’naviy tafakkuri, axloqiy qarashlari va davlatchilik madaniyatini o‘zida mujassam etgan yirik badiiy-didaktik yodgorliklardan biri hisoblanadi. Asarning g‘oyaviy-badiiy qimmatini uning faqat mazmunida emas, balki til boyligi, obrazli ifoda tizimi va ayniqsa frazeologik qatlamining serqirraligida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan “Qutadg‘u bilig” tilini frazeologik nuqtai nazardan o‘rganish asarning ichki semantik tuzilishi, milliy-madaniy xususiyatlari va badiiy poetikasini chuqurroq anglash imkonini beradi.

“Yusuf Xos Hojib turkiy dunyoning baxti va iqbolidir. U ayni mana shu millat sharafi deb yashadi, ijod qildi, o‘zining buyuk qumarusi – millat uchun merosini qoldirdi. “Turk” degan so‘zning o‘zi Yusuf Xos Hojibning faxru iftixori manbai bo‘lgan” [1, 133]. Frazeologizmlar har qanday tilning eng faol, ta’sirchan va milliy ruhini mujassam etuvchi qatlamlardan sanaladi. Ular orqali xalqning dunyoqarashi, hayotiy tajribasi, axloqiy mezonlari, diniy tasavvurlari va ijtimoiy munosabatlari barqaror obrazlar vositasida ifodalanadi. “Qutadg‘u bilig”da esa muallif frazeologizmlardan nafaqat badiiy bezak, balki muallifning falsafiy, axloqiy va ijtimoiy-siyosiy g‘oyalarini ochib beruvchi birlik sifatida keng foydalangan. Asardagi frazeologik birliklar turkiy tafakkurning tildagi ifodasi, madaniy xotiraning izi va poetik fikrlashning yaqqol ko‘rinishidir.

“Qutadg‘u bilig”dagi paremiologik frazeologizmlar mazmunan bir necha yetakchi mavzu maydonlari atrofida uyushganini ko‘rsatadi: eng faol qatlamni dunyo va foniylilik bilan bog‘liq birliklar tashkil etadi, ularda bevafo dunyo, o‘tkinchilik, jamlangan narsaning tarqalishi va moddiy tayanchning barqaror emasligi haqidagi xalqona hikmatlar mujassamlashgan; ulardan keyingi yirik guruhlar axloq va odob, o‘lim va taqdir, zidlik va qarama-qarshilik hamda mehnat, sabr va mashaqqat maydonlaridir. Mazkur paremiologik birliklar ma’no jihatdan umumlashtiruvchi hukm, hayotiy xulosa va didaktik me’yorni ifodalaydi, qo‘llanish jihatidan esa asarda nasihat, axloqiy baholash, ijtimoiy tajribani kodlash, rostlik va halollikni mustahkamlash, ilm va idrokning qadrini ko‘rsatish hamda insonni dunyo, taqdir, munosabat va xulq masalalarida hushyorlikka chorlash funksiyasini bajaradi.

Tilshunoslik nuqtai nazaridan somatik frazeologizmlar tana tajribasining semantik manba sifatida faollashganini namoyon qiladi. I.Kraska-Shlenk inson tanasi turli tillarda emosiya, bilim, ijtimoiy munosabat va qadriyatlarni konseptuallashtirishda asosiy manba vazifasini bajarishini ko‘rsatadi [2, 15-17].

N.Enfild va A.Vejbiskaya esa “turli tillarda his-tuyg‘ular ko‘pincha tananing ichki a’zolari yoki tana qismlari orqali ifodalanishini, bunday ifodalar xalqona tasavvurni ochib berishi”ni ta’kidlaydi [3, 1-2]. Shu jihatdan “Qutadg‘u bilig”dagi ko‘ngil, dil, yurak, jon, qorin, tomoq, nafas, yuz, ko‘z, til kabi komponentlar faqat anatomik ob’jekt emas balki, ular etik baholash, ruhiy holat, nutqiy intizom va ijtimoiy xodisalami ifodolovchi muhim unsurlardir. Asarda tilning foydasi va zarari, qorin va tomoq orqali nafsning tanqidi, yuz orqali obro‘ va uyat, qo‘l orqali qudrat va amal, bosh orqali idora va aqlning berilishi bunga yaqqol dalil bo‘ladi.

H.Burger tadqiqotlarida somatizmlar turli tillarda frazeologik komponentlarning eng yirik guruhlaridan biri ekani ta’kidlanadi. Shu manbada ayrim tanaviy konseptlar, masalan, yurak, jigar yoki qorin kabi birliklar shunchaki “tana qismi” emas, balki madaniy xotira va qadimiy dunyoqarashni saqlagan semiotik markazlar sifatida izohlanadi [4, 536]. Bu nazariya “Qutadg‘u bilig” materialini talqin qilishda juda qimmatli. Chunki asarda ko‘ngil, jon, yurak, yuz va til kabi komponentlar o‘zaro bog‘lanib, insonning botiniy olami, ijtimoiy maqomi va axloqiy sifatlarini bir vaqtning o‘zida kodlaydi. Shu bois somatik frazeologizmlarni oddiy leksik-stilistik vosita emas, balki turkiy madaniy tafakkurning barqaror belgisi sifatida o‘qish to‘g‘riroq bo‘ladi.

Shuning uchun aytish mumkinki, “Qutadg‘u bilig”dagi somatik frazeologizmlar turkiyshunoslik nuqtai nazaridan qadimgi turkiy axloqiy-siyosiy tafakkurning izi, tilshunoslik nuqtai nazaridan tanaviy tajribaga asoslangan kognitiv-semantik model, adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan esa matnning obrazli-falsafiy tizimini tashkil etuvchi badiiy mexanizmdir. Ularning miqdoriy ustunligi ham, vazifaviy rang-barangligi ham “Qutadg‘u bilig” frazeologik sistemasida somatik qatlam yetakchi o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Masalan:

Kishiniig ko‘rki (bo‘lgan) yuz juda yaxshi narsa, / Bu yuz ko‘rkidan ikki kuz suv ichadi.

Ushbu baytda somatik frazeologizmning markaziy komponentlari yuz va ko‘z hisoblanadi. “Kishining ko‘rki yuz” degan ifodada yuz oddiy anatomik a’zo emas, balki insonning tashqi qiyofasi, jamiyat oldidagi qadri va estetik qimmatining umumlashgan belgisi sifatida kelgan. Turkiy poetik tafakkurda yuz ko‘pincha husn, sha’n, nur va ijtimoiy maqbullik ramzi bo‘ladi. Demak, bu misrada yuz somatik komponent sifatida insonning ko‘rkini ifodalovchi semantik markazga aylangan.

Ikkinchi misradagi “bu yuz ko‘rkidan ikki ko‘z suv ichadi” ifodasi somatik frazeologizmning yanada kuchli poetik shaklidir. Bu yerda ko‘zning “suv ichishi” to‘g‘ri ma’nodagi fiziologik harakat emas. U ko‘zning yuz husnidan bahra olishi, undan quvonch va estetik lazzat olishi ma’nosida qo‘llangan. Ya’ni ko‘z bu yerda faqat ko‘ruv a’zosi emas, balki go‘zallikni qabul qiluvchi va his qiluvchi organ sifatida konseptuallashtirilgan. Mark Jonson tanaviy idrok ma’no va qadriyatlarni shakllantirishda asosiy o‘rin tutishini ta’kidlaydi [5]. Shu nuqtai nazardan bu baytda go‘zallik ham, uning qabul qilinishi ham tana a’zolari orqali anglatilgan. Turkiyshunoslik nuqtai nazaridan baytda yuz va ko‘z o‘rtasidagi munosabat qadimgi turkiy estetik kodni ochadi. Yuz husn va nur manbai bo‘lsa, ko‘z shu husnni qabul qiluvchi idrok markazidir. Bunday munosabat turkiy badiiy an’anada tashqi go‘zallik va ichki qimmat o‘rtasidagi bog‘lanishni anglatadi.

Somatik komponentlar bu yerda inson tanasini emas, balki inson qadrini, estetik bahoni va hissiy qabulni ifodalaydi. Tana a'zolari orqali ma'no yasalishi somatik frazeologiyani eng

“Qutadg‘u bilig”da axloqiy komponentlarga asoslangan frazeologizmlar tizimi asarning konseptual yadrosini tashkil etadi. Taqdim etilgan statistik ma'lumotlar axloqiy kategoriyalar ichida o'zini nazorat qilish va iroda, umumiy axloqiy me'yor, rostgo'ylik va ahdga vaf o kabi tushunchalar yetakchi o'rin tutishini ko'rsatadi. Bu holat asarning didaktik-davlatchilik xarakteri bilan bevosita bog'liq.

Turkiyshunoslik nuqtai nazaridan mazkur frazeologizmlar qadimgi turkiy jamiyatning normativ-axloqiy kodeksini ifodalaydi. Ayniqsa “ko'ngil”, “til”, “bosh”, “yuz” kabi somatik komponentlar orqali adolat, vaf o va iroda tushunchalari konkretlashtiriladi. Buni quyidagi baytda ko'rish mumkin:

Sening uzing esonlik tilasang, / Tilingdan yarorsiz so'zingni chiqarma.

Ushbu bayt axloqiy jihatdan nutq odobi va o'zini nazorat qilish g'oyasiga asoslanadi. “Esonlik tilasang” sharti inson hayotida farovonlik va tinchlikning asosiy mezonini sifatida berilgan. Bu farovonlik tashqi omillardan emas, balki insonning o'z xulq-atvoriga, ayniqsa nutqiga bog'liq ekanini ta'kidlanadi.

“Tilingdan yarorsiz so'zingni chiqarma” birikmasi axloqiy frazeologizm bo'lib, u tilni jilovlash, keraksiz va zararli so'zdan tiyilish ma'nosini anglatadi. Bu yerda “til” faqat anatomik a'zo emas, balki insonning axloqiy mas'uliyati va ijtimoiy munosabatlaridagi asosiy vosita sifatida talqin qilingan. Baytning markaziy g'oyasi shundaki, insonning baxti va osoyishtaligi uning nutqiy intizomiga bog'liq. Ya'ni beandisha, o'ylanmagan so'z insonga zarar keltiradi, aksincha, o'zini tiyish va o'ylab gapirish axloqiy kamolot belgisidir.

“Qutadg‘u bilig”da diniy komponentli frazeologizmlar asarning ma'naviy-ideologik asosini tashkil etadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Alloh, tangri, jannat, do'zax, duo, ibodat, oxirat, taqdir, zikr kabi birliklar faqat lug'aviy emas, balki barqaror frazeologik formulalar sifatida qo'llanadi. Bu holat asarda islomiy dunyoqarashning til va poetika orqali sistemali ifodalanganini ko'rsatadi.

Turkiyshunoslik nuqtai nazaridan mazkur birikmalar Qoraxoniylar davrida islomiy axloq va davlatchilik g'oyalari turkiy tafakkur bilan uyg'unlashganini tasdiqlaydi. M.Umarxo'jayev ta'kidlaganidek, “diniy leksika turkiy tillarda nafaqat e'tiqod, balki ijtimoiy tartib va axloqiy normalarni belgilash vositasi bo'lgan” [6, 118-120]. Demak, “Qutadg‘u bilig”da “Alloh yodi”, “taqdir”, “oxirat”, “duo”, “yaratgan” kabi birikmalar inson xulqini tartibga soluvchi konseptlardir.

Masalan: Bunyod bulganlardan [ya'ni insonlardan] qo'rqma, (ulardan) tilak tilama.

Yaratgandan qo'rqin, uni suyanchiq deb bilgin.

Ushbu bayt diniy-axloqiy nuqtai nazardan tavhid, tavakkal va ma'naviy mustaqillik g'oyalari asoslanadi. Birinchi misrada “bunyod bo'lganlardan qo'rqma, tilak tilama” degan fikr insonni maxluqotga qaram bo'lmaslikka chaqiradi. Bu yerda “tilak tilamoq” frazeologik birlik bo'lib, u moddiy yoki ma'naviy yordamni odamlardan kutish ma'nosini anglatadi. Muallif bu orqali insonning haqiqiy tayanchi inson emas, balki Yaratgan ekanini ta'kidlaydi.

Ikkinchi misrada “Yaratgandan qo'rqin, uni suyanchiq deb bilgin” degan g'oya markazga chiqadi. Bu yerda “qo'rqish” so'zi oddiy qo'rquv emas, balki islomiy ma'noda taqvo, ya'ni Alloh oldida mas'uliyatni his qilishni anglatadi. “Suyanchiq deb bilmoq” esa tavakkal konseptini ifoda etadi, ya'ni inson barcha ishda Yaratganga ishonib, Unga tayanadi.

Adabiyotshunoslik jihatdan bayt antiteza asosida qurilgan: inson ↔ Yaratgan. Bu qarama-qarshilik orqali g'oya kuchaytiriladi. Demak, bayt insonni dunyoviy qaramlikdan chiqarib, ilohiy tayanchga yo'naltiruvchi didaktik formula vazifasini bajaradi. Yana: Kimning joni ezgu(lik) nomi bilan chiqsa, / Ezgu duo bilan uning oti (og'izdan) tushmaydi.

Ushbu bayt diniy-axloqiy jihatdan ezgulik, duo va “yaxshi nom” konseptlariga asoslanadi. Birinchi misrada “joni ezgulik nomi bilan chiqsa” ifodasi insonning hayoti qanday o'tgani uning o'limi orqali baholanishini anglatadi. Bu yerda “jon chiqmoq” somatik frazeologizm bo'lib, u nafaqat biologik o'lim, balki insonning ma'naviy natijasi, hayot yakunidagi axloqiy bahosini ham ifodalaydi. Ikkinchi misrada “ezgu duo bilan uning oti og'izdan tushmaydi” deyilishi insonning yaxshi amallari jamiyat xotirasida duo orqali saqlanishini ko'rsatadi. “Og'izdan tushmaslik” barqaror frazeologik birlik bo'lib, u doimiy yodga olish, yaxshi nomning saqlanishi ma'nosini anglatadi. Bu yerda duo diniy amal sifatida emas, balki ijtimoiy-axloqiy qadriyat sifatida talqin qilingan.

Tilshunoslik nuqtai nazaridan bu birikmalar kognitiv va madaniy semantika bilan bog'liq. Ch.Fillmor freym semantikasida ma'no muayyan madaniy bilimlar tizimi orqali tushunishini ta'kidlaydi [7, 25-27]. Shu jihatdan “jannat”, “do'zax”, “savob”, “gunoh” kabi komponentlar maxsus diniy freymni tashkil etadi. Adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan diniy frazeologizmlar asarning didaktik va nasixatyi ruhini kuchaytiradi. U. Eko ta'kidlaganidek, badiiy matnda milliy va diniy mantiq orqali ma'no chuqurlashadi [8, 66-68]. “Qutadg‘u bilig”da ham diniy birikmalar insonni savobga chaqirish, gunohdan qaytarish va oxiratni yodga solish orqali tarbiyaviy funktsiya bajaradi.

Xulosa qilib aytganda, “Qutadg‘u bilig”dagi frazeologik birliklarni semantik maydonlar asosida tasniflash asarning ichki ma'no tizimi tasodifiy emas, balki qat'iy g'oyaviy-obrazli qonuniyat asosida qurilganini yaqqol ko'rsatadi. Dunyo, o'lim, qut, nom, ko'ngil, so'z, adolat, zulm, davlat, boylik, qashshoqlik, do'stlik va kasallik kabi yirik konseptlar matnda yakka-yukka leksik ma'nolar sifatida emas, balki o'zaro bog'langan frazeologik modellar orqali ifodalanadi. Shu jihatdan “Qutadg‘u bilig” frazeologiyasi asarning tashqi uslubiy bezagi emas, balki uning axloqiy, siyosiy, diniy va falsafiy mazmunini harakatga keltiruvchi ma'noviy mexanizmdir. Ayniqsa somatik va metaforik qatlamning ustunligi inson tanasi, hissiyoti va kundalik tajribasi orqali abstrakt tushunchalarni anglatish qadimgi turkiy tafakkurning yetakchi kognitiv tamoyili bo'lganini tasdiqlaydi. Bu esa asarda frazeologizmlar nafaqat poyetik ta'sir, balki dunyoqarashni modellashirish, axloqiy hukmni mustahkamlash va davlatchilik g'oyasini obrazli shaklda ifodalash vazifasini ham bajarishini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. Тўхлиев Б. Юсуф Хос Ҳожиб инсоннинг маънавий камолоти ҳақида // Жаҳон туркологиясининг буюк обидаси “Қутадғу билиг” ва уни ўрганишнинг долзарб масалалари. Халқаро конференция тўплами. – Тошкент, 2020. – Б. 133.
2. Kraska-Szlenk, I. Semantic extensions of body part terms: common patterns and their interpretation // Language Sciences. 2014. Vol. 44. P. 15-17
3. Enfield, N. J., Wierzbicka, A. Introduction: The body in description of emotion // Pragmatics & Cognition. 2002. Vol. 10. No. 1-2. P. 1-2.
4. Burger, H., Dobrovolskij, D., Kühn, P., Norrick, N. R. (eds.). Phraseology: An International Handbook of Contemporary Research. Vol. 1. Berlin; New York: De Gruyter, 2007. P. 212, 536.
5. Johnson, M. Embodied Mind, Meaning, and Reason: How Our Bodies Give Rise to Understanding. University of Chicago Press. [University of Chicago Press](http://www.press.uchicago.edu/)
6. Умархўжаев М. Туркий тиллар тарихи ва лексикологияси. – Тошкент: Университет, 2005. – Б. 118–120.
7. Fillmore Ch. J. Frame Semantics and the Nature of Language. – New York, 1976. – P. 25–27.
8. Eco U. The Role of the Reader. – Bloomington: Indiana University Press, 1979. – P. 66–68.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asaridagi frazeologik qatlam tipologik va umumfilologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda paremiologik, somatik, axloqiy va diniy komponentli frazeologizmlar semantik maydonlar asosida izohlanadi. Asardagi barqaror birikmalar turkiy tafakkur, axloqiy me‘yor, diniy dunyoqarash va badiiy poetikaning muhim ifodasi sifatida baholanadi.

Kalit so‘zlar: frazeologizm, paremiologiya, somatik birlik, diniy frazeologiya, axloqiy konsept, semantik maydon.

Abstract. This article examines the phraseological layer of Yusuf Khass Hajib’s “Kutadgu Bilig” from typological and general philological perspectives. The study classifies paremiological, somatic, moral, and religious phraseological units through semantic fields.

Key words: phraseology, paremiology, somatic unit, religious phraseology, moral concept, semantic field.

Аннотация. В статье анализируется фразеологический слой произведения Юсуфа Хос Ходжиба “Кутадгу билиг” с типологической и общефилологической точек зрения. В исследовании паремиологические, соматические, нравственные и религиозные фразеологизмы рассматриваются на основе семантических полей.

Ключевые слова: фразеологизм, паремиология, соматическая единица, религиозная фразеология, нравственный концепт, семантическое поле.
